

AYOLLARGA EHTIROM BUYUKLIK RAMZI

Rahmonova Ruxshona

O‘zbekiston xalqaro islam akademiyasi

Dinshunoslik yo‘nalishi talabasi

rahmonovaruxshona268@gmail.com

+998900817212

Annotatsiya: Ayollar jamiyatning qayta tiklanishi va rivojlanishida inkor etib bo‘lmaydigan faol rol o‘ynaydi. Ular farzandlarni tarbiyalash, ilmliy yoshlarni yetishib chiqishidagi ulkan hissalari bilan jamiyat uchun asosdirlar. Shunday ekan, islam dini ayollarga hurmat ko‘rsatishga, ularning hayotdagi o‘rnii va mavqeiga urg‘u berishga intiladi. Unda erkaklar ayollarga yaxshi munosabatda bo‘lishlari va ularga mas’ul ekanliklari haqida Qur’oni Karim oyatlari va hadisi shariflarda bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: ayollar, islam dini, johiliyat davri, mushriklar, Qur’oni Karim, Xadicha roziyallohu anho, Ali ibn Abu Tolib roziyallohu anhu, Bani Isroil, “Olima ayollar jamiyati”.

Har qanday davlat va jamiyat taraqqiyoti bir qator omillar asosida yuzaga keladi. Ushbu jarayonda ayollarning o‘rni, xizmatlari va kelajak avlod istiqbolidagi mehnatlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ayollar jamiyatda juda ko‘p rollarga ega. Masalan, ayollar bir paytning o‘zida ona, turmush o‘rtoq, opa-singil, xola, amma, dugona, ustoz, tarbiyachi, uy bekasi va bundan boshqa jamiyatning ajralmas bo‘lagi sifatida ularning rollarini davom ettirish mumkin.

Islomda, avvalambor, ayol — insoniyat silsilasini davom ettiruvchi mo‘tabar zot, ona sifatida qadrlanadi.

Dunyo xalqlari orasida ayolga nisbatan nomunosib qarashlar avj olgan vaqtida, Islom bundan o‘n besh asr muqaddam ayolning sharafi, iffati va haq-huquqlarini ta’minlab bergandi. Insoniyatning so‘nggi payg‘ambari Muhammad alayhissalom, ayol nomini ulug‘lash, uning sha’nini ko‘tarish, haq-huquqlarini belgilab berishda faqat islam ummatiga emas, butun kishilik jamiyatiga ibrat bo‘ldilar.

O‘z o‘rnida musulmonlar ham ayolga bo‘lgan munosabat qanday bo‘lishini butun dunyoga isbotlab qo‘yishdi. Aynan mana shu tamoyil, butun dunyo xalqlari ongida ayolga nisbatan hurmat va ehtirom kurtaklari yoyilishiga sabab bo‘lgan bo‘lsa ajab emas. Chunki tarixga nazar solsak, ayollarga nisbatan shafqat va tenghuquqlilik masalasida biror bir millat musulmonlardan peshqadam bo‘lganiga guvoh bo‘lmaymiz.

Islom tarixidan ma’lumki, arablardagi islomdan oldingi johiliyat davrida mushriklarning johilliklari shu darajada ediki, hatto ulardan birortasi o‘z oilasida qiz farzand tug‘ilganini eshitsa, bu xabarning “yomon”ligidan uyalib, odamlarga ko‘rinishni istamasdan, ularning ko‘zlaridan yashirinib yurgan. “Qiz ko‘ribсан” degan malomatdan qo‘rqishgan. Johiliyat davridagi keng ko‘zga ko‘ringan tubanlik, pastkashlikning ifodasi sifatida ayollarni past sanash, ularni odam o‘rnida ko‘rmaslik, afsuski, hukmronlik qilgan. Shuning natijasida yangi tug‘ilgan qizlarni tiriklayin ko‘mib yuborish odatga aylangan.

Ammo islam dini jamiyatning ajralmas qismi bo‘lgan ayollarga bo‘lgan munosabatlarni o‘zgartirdi. Qur’oni Karim ham johiliyat mushriklarining ayollarga bo‘lgan adolatsizliklarini nafaqat tanqid qildi, balki ularning bu qilmishlari uchun oxiratda jazosini tortishlarini xabar berdi.

Islomda erkaklarga o‘z ayollariga nisbatan yaxshi muomalada bo‘lish, ularni xorlamaslik, ilm olishiga va dinini o‘rganishiga sharoit yaratib berish, taom, kiyim, boshpana va ro‘zg‘or ashyolari bilan ta’minalash, nikohda mahrini berish kabi ko‘plab majburiyatlar yuklangan.

Ilk islam davrida ham ayollarning ilm olishga bo‘lgan ishtiyoqlari baland bo‘lgan. Bir sahobiya ayol Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi va sallamning huzurlariga kelib: «Ey Allohnинг Payg‘ambari! Erkaklar sizning davrangizda ilm olib, olim bo‘lishmoqda. Ayollarda bunday imkoniyat yo‘q. Shuning uchun bir kun tayin qilsangiz, biz chaqirig‘ingizga labbay deb hozir bo‘lamiz», dedi. Nabiy sollallohu alayhi vasallam chorshanba kunini ayollar uchun tayin qildilar. Ayollar shu kunlarda to‘planib, Nabiy sollallohu alayhi vasallamdan ilm o‘rgana

boshladilar. Ularning diniy savodxonligi erkaklardan kam emas edi. Alloh taolo ularga ham erkaklar bilan barobar ravishda ilm ato etdi.

Islom tarixida ilk iymon bilan sharaflangan, Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning orqalarida turib birinchi namoz o‘qigan eng baxtli inson, ilk Qur’on oyatlarini eshitgan inson ham mo‘minlar onasi hazrati Xadicha roziyallohu anho edilar.

Hazrati Ali ibn Abu Tolib roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: - Bani Isroilning eng xayrli ayoli Maryam binti Imron bo‘lsa, bu ummatning eng xayrli ayoli Xadicha binti Xuvayliddir! - deb marhamat qildilar”.

Islom dini ta’limotlari ayol zoti sharafini yuksaklarga ko‘taradi, uning sha’n-obro‘sini qattiq himoya qiladi, ayolning inson zotining davomchisi sifatida barcha haq-huquqlarini belgilab beradi. Dinimiz hatto urush paytida ham ayollar va bolalarni o‘ldirishni man etgan. Qur’oni Karimda ayol haqida ko‘p oyatlar nozil qilingan. Hatto butun boshli bir sura “Niso” deb nomlanadi va ularda ayollarga tegishli masalalar batafsil aytilgan.

Bugungi kunda mamlakatimizda ayollarga e’tibor chinakam davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Ta’kidlash joiz, bugungi kunda Yurtboshimiz boshchiligidida Yangi O‘zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini bunyod etish sari dadil qadamlar qo‘ymoqdamiz. Binobarin, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar ayollarning baxti asosiga qurilmoqda, desak adashmagan bo‘lamiz.

Sir emaski, yangi Uyg‘onish davri, avvalo, ilm-fanning taraqqiyotiga, milliy ma’naviyatning mustahkamligiga bog‘liqdir. Mazkur o‘tkir haqiqatni chuqur his qilgan holda xotin-qizlarning ta’limi va ilm-fan bilan shug‘ullanishlari uchun davlatimiz tomonidan yangi imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Jamiyatda ayollarni ilm-fanga ruhlantirish maqsadida yangi mexanizm – “Olima ayollar jamiyati” tuzilgani hamda uning faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va yanada rag‘batlantirish uchun davlat byudjetidan alohida mablag‘lar ajratilgani barcha xotin-qizlarning

ko‘nglida jamiyatning eng faol qatlami – “olima ayol” bo‘lishga intilishlarini yanada kuchaytirishi ayni haqiqat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qur’oni karim ma’nolarining tarjima va tafsiri /Tarjima va tafsir muallifi Shayx Abdulaziz Mansur. –T.: TIU, 2009. -624 b.
2. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Baxtiyor oila. -T.: “Hilol-nashr”, 2021. -528 b.
3. Холматов, Х. А. (2023). ОТНОШЕНИЕ СОВЕТСКОГО ПРАВИТЕЛЬСТВА К РЕЛИГИОЗНЫМ УЧЕБНЫМ ЗАВЕДЕНИЯМ В ТУРКЕСТАНСКОЙ АССР. Gospodarka i Innowacje., 34, 446-455.
4. Lapasov, M., & Xolmatov, X. (2023). OILA–BARKAMOL AVLOD TARBIYASINING MASKANI. Наука и инновация, 1(2), 72-74.
5. Xolmatov, X. (2023). OILA–BARKAMOL AVLOD TARBIYASINING MASKANI. GOLDEN BRAIN, 1(11), 86-90.
6. Lapasov, M., & Xolmatov, X. (2023). YOSH AVLOD–KELAJAK POYDEVORI. Talqin va tadqiqotlar, 1(8).
7. Xusniddin Xolmatov BUXORO AMIRLIGINING TA’LIM TIZIMI // Academic research in educational sciences. 2022. №. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/buxoro-amirligining-ta-lim-tizimi> (дата обращения: 04.07.2023).
8. <https://www.bukhari.uz/?p=15601&lang=oz>